

BUXORO SAN'AT MUZEY-QO'RIQXONASI XAZINASIDA SAQLANAYOTGAN BIR TOSHBOSMA BAYOZ HAQIDA

Jo'rayeva Nargiza Rafiq qizi

Buxoro davlat universiteti birinchi kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8125975>

Annotatsiya: matn bu qimmatli tarixiy asosdir. Har bir tarixchi, adabiyotchi, manbashunos va umuman barcha tarix va filologiya sohasi izlanuvchilari buni inkor qilmaydilar. Buxoro shahridagi san'at muzey-qo'riqxonasi xazinasida juda ko'plab nodir qo'lyozma va toshbosma manbalar necha yillardan buyon saqlanib kelinmoqda va ushbu xazinadagi bir toshbosma kitob diqqatimizni tortdi. E'tiborli jihati shundan iboratki, deyarli yuz yil oldin yozilgan ushbu toshbosma manba mundarijasidan o'rin olgan bizgacha yetib kelgan g'azallar, murabba, muxammas, musaddaslar mazmuni bugungi kundagi dolzarb muammolariga teng kelib unga yechimlar izlaydi

Kalit so'zlar: toshbosma, qo'lyozma, matn, bayoz, inventor raqam, xattot, Mulla Hasan Orifjonov, Haziniy, Hoji Sobir, g'zal, muxammas, transliteratsiya, tadbil.

ОБ ОДНОМ ГРАФТЕ БАЙОЗА, ХРАНЯЩЕМСЯ В СОКРОВИЩЕ БУХАРСКОГО ХУДОЖЕСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА

Аннотация: текст представляет собой ценный исторический фон. Этого не отрицает каждый историк, писатель, источниковед и вообще все исследователи истории и филологии. Многие редкие рукописи и литографические источники долгие годы хранятся в сокровищнице художественного музея-заповедника в Бухаре, и одна литографическая книга в этой сокровищнице привлекла наше внимание. Примечательно то, что содержание газелей, мурабб, мухамм, мусадд, дошедших до нас из содержания этого литографического источника, написанного почти сто лет назад, равнозначно актуальным проблемам современности и ищет пути их решения.

Ключевые слова: каменная печать, рукопись, текст, баяз, изобретательский номер, каллиграф, мулла Гасан Арифжанов, Хазини, Гаджи Сабир, красивый, мухаммас, транслитерация, головастик.

ABOUT ONE PRINT BAYOZ KEPT IN THE TREASURY OF THE BUKHARA ART MUSEUM-RESERVE

Abstract: the text is a valuable historical background. Every historian, writer, source scholar, and in general all researchers of history and philology do not deny this. Many rare manuscripts and lithographic sources have been kept in the treasury of the art museum-reserve in Bukhara for many years, and one lithographic book in this treasury attracted our attention. The remarkable aspect is that the contents of the ghazals, murabba, mukhammas, musaddas that have reached us from the content of this lithographic source written almost a hundred years ago are equal to the current problems of today and seek solutions to them.

Key words: petroglyph, manuscript, text, bayaz, inventor number, calligrapher, Mulla Hasan Orifjanov, Hazini, Haji Sabir, beautiful, mukhammas, transliteration, tadbil.

KIRISH

XIX-XX boshlari asrlarning adabiy –tarixiy evrilishlar mobaynida ayrim qimmatli asarlar qo'lyozma va toshbosma holida bizning zamonamizgacha yetib kelishga muvaffaq bo'ldi va shubhasiz ushbu jarayondagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy o'zgarishlar o'zbek adabiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbek adabiy harakatiga yangi yo'nalishlar, yangi rux, yangi mavzular kirib keldi. Bu davrda o'zbek adabiyotida yangi nomlar paydo bo'ldi va ularning ijodi vaqtli matbuotda

yoritilib borildi. Ularning ko‘plari bayozlar, to‘plamlar, devonlar holida chop etildi. Ana shu davr mahsuli bo‘lgan “Armug‘oni Xislat”, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Bayozi Haziniy”, “Tuhfai Shavkat”, “Majmuai shoirin”, “Bayozi Miriy”, “Bayozi Nodim”, “Bayozi Kamiy”, “Haft shuaro”, “Bayozi Tabibiy”, “Tazkirai shuaro” kabi ko‘pgina bayozlar va to‘plamlar qatorida hali nashr etilmagan va o‘rganilmagan “Tuhfat-ul obidin va anis ul-oshiqin” (“Obidlar tuhfasini va oshiqilar ulfati”) bayozi ham alohida ahamiyatga ega.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bayoz atamasiga dastavval to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, uning lug‘aviy ma‘nosi “Bayoz” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “oqlik” bo‘lib, atama sifatida “she‘rlar to‘plami”ni anglatadi. Bayozlar odatda ikki yoki undan ortiq shoirlar she‘rlaridan tashkil topadi. Bayozlar asosan mashhur shoirlarning lirik asarlaridan tuzilgan. Bayozlar ma‘lum bir g‘oya yoki muayyan dunyoqarashni tashviq va targ‘ib qilmaydi, umuman saylab olingan asarlarda davriylik ham bo‘lmaydi. Kimning she‘ridan qanchalik kiritish bayoz tuzuvchining xohishiga bog‘liq bo‘lgan. Bayozlar sarbayoz (so‘z boshi), lirik she‘rlar (asosiy qism), xotima va ilovadan tashkil topadi. Ayrim bayozlarda asarlari kiritilgan shoirlar nomi mundarija sifatida beriladi. Bu xil to‘plamlar mualliflarning o‘zi yoki adabiyot ixlosmandlari va xattotlar tomonidan tuzilib, adabiyot targ‘ibida muhim vazifa bajargan.

So‘zimizni bizga tanish bayoz haqida davom ettirar ekanmiz, shuni ta‘kidlashimiz joizki, ushbu toshbosma kitob nusxalari bizga ma‘lum ikki nusxa: biri Samarqanddagi Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida (to‘liq variantda) va ikkinchi nusxasi Buxoro shahridagi muzey-qo‘riqxonada 12443 inventar raqam ostida (ayrim betlari chala holda) saqlanib kelinmoqda.

Dastlabki izlanishlar chog‘ida ushbu bayozning shartli ravishda “Bayoz: Muqimiy, Shavqiy, Hoji Sobir, Haziniy, Muxlis, Huvaydo” deb nomlanganiga guvoh bo‘ldik. Yana ushbu asarning dastlabki olti beti va oralaridan ayrim betlari yo‘qolganligi ushbu toshbosma bayozning transliteratsiyasida bizga ancha qiyinchiliklar keltirib chiqardi. Chunonchi, yuqorida aytganimiz dastlabki besh bet, yigirma bir, yigirma ikki, yigirma uch va yigirma to‘rtinchi, sakson uch va sakson to‘rtinchi, bir yuz yigirma bir va bir yuz yigirma ikkinchi betlari bizgacha yetib kelmagan. Biz ta‘kidlayotgan bayoz tarkibida mavjud qolgan betlarda esa biz uchun yetarlicha foydali davr bilan bog‘liq kuchli diniy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy, kundalik hayotga oid g‘oya va dunyoqarashlar she‘riy shaklga solingan holda anchagina salmoqdor badiiy boylar yig‘ilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu toshbosma bayoz “Tuhfat-ul obidin va anis ul-oshiqin” (quyida qisqartirib: “Tuhfat ul-obidin” deb ataymiz) bayozi 1326 hijriy – 1908 melodiyl yilda Toshkentda Mulla Hasan Orifjonov litografiyasida (toshbosmasida) chop etilgan.

TADQIQOT MUNDARIJASI VA MUHOKAMA

Dastavval, bayoz mundarijasida yig‘ilgan she‘rlarning mualliflari to‘g‘risida, xususan, ularning hayot- va ijodi to‘g‘risidagi asosiy ma‘lumotlarni Po‘latjon Domulla Qayyumiyning tazkiralari bilan oldik, biroq shuni ham ta‘kidlab o‘tish joizki, ma‘lumotlar bilan bir qator berilgan ijod namunalari qiyoslash mobaynida fikrlarimiz va xulosalarimizda shubhalar tug‘ilgan o‘rinlar ham bo‘ldi. Chunonchi, Xoji Sobir bayozda xuddi shu tarzda berilgan ism bilan ijod qilgan shoirning bir nechta she‘rlari bilan tazkiradagi namunalari bir-biriga uslub jihatdan o‘xshamasligini payqadik. Bundan tashqari, tazkirada faqat Sobir deya berilgan. Shundan xulosa qilsak, ijodkor Sobir va Hoji Sobir bioshqa-boshqa ijodkorlardir desak xato bo‘lmaydi. “Tuhfat ul-obidin” da berilgan ushbu ijodkor she‘rlarining mazmunida zamona ahlining borgan sari nodonlashib din yo‘lidan chiqib ketayotgani, xalq orasida turli salbiy illatlar ko‘payib borayotgani va buning

natijasida omma qashshoqlashib ketayotgani haqida tanqidiy qarshlar o'z ifodasini topgan. Bayozning yettinchi betide quyidagicha she'r berilgan:

Qaysi tarafg'a borsang bir necha xalq bekor
Bir xil kishini ko'rsang turmush joyi samvor
Bul to'g'ridin nechani ota-onasi be'zor
Kosibni aksaridur ustozidin bundor

Bayozning asosiy qismida shoir Haziniyning she'rlari: g'azal, murabba, muxammas, musaddaslari o'rin olgan va ularni 1999-yilda A. Madaminov va O. Jo'raboyevlar tomonidan tayyorlangan devoni tarkibida uchratish mumkin. Bu yerda bir muxammas va bir g'azal devonda uchramaydi.

Bayozning oxirida o'sha davrning xarakteristikasini ifodalovchi Obid Namangoniyning "Muxammas ul-Obid 'ala-l-Majrux fiy ahvoli ahli zamon (Zamon ahlining ahvoli haqidagi Majruhning g'azaliga Obidning muxammasi)" deb nomlanuvchi muxammasi alohida e'tiborga molikdir. Muxammasning nomlanishi ham "Zamon ahlining ahvoli" deb yuritiladi. Ushbu muxammasda Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahvol mahorat bilan bayon etilgan va sharhlab berilgan bo'lib, Jumladan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, turlicha tartib va nizomlarning g'ayrimilliy va g'ayridiniy ko'rinishdaligi hamda ularning oqibatlarini haqida gap boradi.

Bo'ldilar bizlarga nosih befarosatlar chiqib,
Amri ma'ruf aylashurlar betahoratlar chiqib,
Maslahatdon bo'ldi necha bezakovatlar chiqib,
Bo'ldi Farg'ona elikim g'ayri sun'atlar chiqib,
Turfa tartibu nizomu o'zga bid'atlar chiqib

Turfa tartib va qoidalar hamda shariatdan tashqari bid'atlar joriy etilib, o'zlari befarosat bo'lgani holda, bizga nasihat beruvchilar ko'paydi, deb noliydi shoir. Betahoratlar (bu yerda g'ayrimusulmonlar nazarda tutilyapti) kelib bizga amru ma'ruf qiluvchilar, "adab o'rgatuvchilar" ko'payganini, aqlsiz nodonlar kelib aql o'rgatishini va Farg'ona eli shunday kishilar qo'li ostida qolganini afsus bilan bayon etadi.

O'sha davrda mahalliy millatlarni bo'ysundirish uchun ularni diniy e'tiqodidan va milliy ma'naviyatidan mahrum qilish kerakligi chor Rossiyasi siyosatining Markaziy Osiyoga nisbatan bunday yo'li amalda joriy etilganligini muxammasdagi fikrlar tizimi orqali bilib olamiz. Muxammasni o'qiganimiz sari islom dinining qadriga putur yeta boshlagani, odamlarda hamiyat, ya'ni din uchun or-nomusni saqlash, uning rivoji uchun mashaqqat chekish qolmagani, kishilarda bir-birovga birodarlik nishonalari kamayib borayotganligi haqidagi manzaralar tasavvurimizda gavdalanadi:

Ba'zilar masjid aro ermas xudo uchun muqim,
Madrasa ichra mudarris vaqfi uchun mustaqim,
Gar o'zi lutf aylamas bo'lsa xudovandi Karim,
Mavja kelturdi zinovu fisqni bahrigakim,
Zohiri zohidsifat ahli sharoratlar chiqib

Bu misralarda Obid Namangoni tashqi ko'rinishdangina taqvodor odamlar, ya'ni munofiqlar chiqib, masjidga qatnash ham shunchaki, ko'z-ko'z uchun, madrasalarda mudarrislar tolibi ilmlarga saboq berish uchun emas, balki madrasaning yeri va undan keladigan daromad uchun domlalik qilib yurganliklarini achinish bilan qalamga olgan. Shu tufayli, zinokorlik va

fi-squ-fasod dengizi mavj urib boshladi. Bu esa millat taqdirining inqirozga yuz tutishiga olib keladi.

Muxammasda milliy musulmon maktabida tahsil olmagan savodsiz, ma'rifatsiz johillar paydo bo'lib, ular dinu diyonat, shariat, ma'rifat kabi qadriyatlarimiz tanazzuliga sabab bo'lganligini, ya'ni kishilar dilida gunoh ishlarga moyillik paydo qilgani, odamlarda ichi qoralik, hasad, fi-squ-fasod kabi yaramas illatlar muxammasda kuchli tanqid ostiga olingan.

O'zi munofiq, mazhabining tayini yo'q, kishining haqidan qo'rqmaydigan, tashqi ko'rinishi imomu aslida ichki dunyosi g'arib, bediyonat, o'g'ri odamlar shariatga peshvo bo'lganligidan afsuslanadi Obid Namangoniy. O'sha zamonda shunday bir toifa odamlar paydo bo'ladi, o'zlarini go'yoki Iskandar Zulqarnayn deb biladilar. Aslida bularning qilmishlari xayru saxovat qilish o'rniga sudxo'rlik orqasidan boyluk orttirish, amallari faqat yulg'unchilikdan iborat ekanligining real manzarasi beriladi muxammasda:

Aylagung ixlos to'xtovsiz ko'rib diydorini,
Qaysi mazhabdin xalifa deb munofiq o'g'rini,
Haqi mardumdin hazar qilmas, nadur bilmam dinini,
Xonaqohda raqs urub oldi nechani kafshini,
Botini kizbu xiyonat ahli suhbatlar chiqib

O'sha davrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy ahvoli shu darajaga yetdiki, pulparastlik barcha muqaddas narsalardan, hattoki, ota-onadan, ilmdan, el ichra e'zozda bo'lgan payg'ambar avlodlarini hurmatlashdan yuqori turar edi. Balki pul uchun ilmi, fozil kishilarni haqoratlash, ota-onalarni behurmat qilish, g'ayridinlarni e'zozlash ustun bo'lib qolganligini muxammas ruhiyatidan bilib olamiz. Obid Namangoniy imon-e'tiqod, axloq, diyonat va ma'rifat bilan uyg'unligini, din asrlar osha kishilarni halollikka, rostgo'ylikka, kamtarlikka, mehr-muruvvatga, saxovatga chorlab kelganligini aytib o'tadi:

Xoja, mulloni haqorat aylagaylar pul uchun,
Ilm odobini g'orat aylagaylar pul uchun,
Volidaynni tarki izzat aylagaylar pul uchun,
Kesmagan hinduni izzat aylagaylar pul uchun,
El arosida otangan ahli izzatlar chiqib

Diniy qadriyatlarning tanazzulini ko'rgan Obid Namangoniy musulmonlarni undan saqlanishga da'vat etadi, hamisha xudo yo'lida bo'lishga, qalbni xudoning ma'rifati bilan bezashga chaqiradi, gunoh ishlardan parhez qilishga da'vat etadi.

Ma'lumki, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida butun Turkiston o'lkasida xudosizlik (ateizm – M.S.) dunyoqarashining kishilar ongida jadal ildiz ota boshlagan davrdir. Bu davrda hokimiyat tepasiga Xudodan qo'rqmaydigan "ahli donishlar" kelib, ko'ngliga kelgan noma'qul ishlarni islom dini nomidan targ'ib qilar, yangi tartib-qoidalar o'ylab topar va xalqqa zulm qilar edi. Muxammasda ushbu jarayonning tadrijiy rivojlanish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin:

Bu Ali Sino erur hayron zamon tazvirig'a,
Kor eturlarkim, yetib bo'lmas ani ta'birig'a,
Aldabon shayton elin band aylagay zanjirig'a,
Hech nayrang o'xshamas bu xalqning tazvirig'a,
Ushlatur shayton yaqosin ahli san'atlar chiqib.

Yaxshiliq qilsang kima qayda sanga sud aylagay,
Qaydagi ulfatlaring dilshodu xushnud aylagay,

San vafo qilsang, jafolar birla nobud aylagay,
Yetmagan aqli shayotin ishni mavjud aylagay,
Qo'rqmagan qahri Xudodan ahli hikmatlar chiqib

Nihoyat, muxammas oxirida muallif ajalga hiyla va boshqa tadbirlar (pora berib, mansab berib uzr so'rash va b. – M.S.) kor qilmasligini, har kim o'z a'moliga yarasha ajrim olishi, gunohkorlar ham, mo'min bandalar ham xudoning nazaridan chetda emasligi va oxir-oqibat barchaning bu foniy dunyodan bir-bir ketishi muqarrarligini uqtiradi. O'lim – haq, demak bu foniy dunyoda kishilar ezgulikni ko'paytirishi kerak, degan xulosaga keladi Obid Namangoniy.

XULOSA

Ushbu muxammasda mustamlakachilikning ilk paytlarida musulmonlar yurtini o'z galar oyoq osti qilganlari va xalqni dinu diyonatdan, milliy qadriyatidan, ma'naviyatidan mahrum qilinganining badiiy ifodasi o'z aksini topgan. Shoir diniy qadriyatlarni saqlab qoluvchi vatanparvar inson sifatida gavdalanadi.

So'zimiz yakunida aytib o'tish kerakki, bayozdagi boshqa ijodkorlarning berilgan g'zal, muxammas, murabba shaklida yozilgan namunalarda ham xuddi ana shunday ma'no mazmun ya'ni zamona ahlidan norozilik, din ulamolarining munofiqligi-yu dunyo boyliklariga berilgan xalqning diyonatidan mahrum bo'lib borayotganligi nomoyon bo'lib e turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin. – Toshkent: Orifjonov toshbosmasi, 1908. – 192 sahifa.
2. M.Hamidova. "Qo'lyozma bayozlar adabiy manba sifatida" ("Adabiy meros" II kitob. Toshkent, 1971.
3. Hakimov M. - Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar // Adabiy meros, 1991.1 - son, - B. 3-5.
4. Hakimov M. - Alisher Navoiy nomli Davlat Adabiyot muzeyi zallari boylab.// Adabiy meros, 1977.7- son, - B. 116-124.
5. Hamidova M. - "Mahbub ul-qulub" va uning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish prinsiplari // Adabiy meros, 1986,3- son, - B. 25-27.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 644 б.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1984. – 624 б.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1985. – 636 б.